

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14559394>

## YOSHLARNING PEDAGOGOGIK IJTIMOIY MOSLASHUVI VA MA'NAVIY TARBIYASI HAQIDA TUSHUNCHALAR

**Xo‘jaqulov Davronbek Raymnazarovich**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Pedagogika fakulteti tyutori

**Nurmuhammadova Gulnoza Muhiddin qizi**

Pedagogika yo‘nalishi 2-kurs talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada yoshlarning ijtimoiy moslashuvi zamonaviy jamiyatning dolzarb masalalaridan biriligi va shaxsning jamiyat talablariga moslashishi hamda o‘z o‘rnini topishi haqida fikrlar yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** Ijtimoiy, ma’naviy tarbiya, ijtimoiy moslashuv, integratsiya, tarbiya, oila, identifikatsiya, eksperiment, faol moslashuv, passiv moslashuv, innovatsion moslashuv, ta’lim.

Ijtimoiy moslashuv – bu insonning jamiyatdagi o‘z o‘rmini topishi, atrofdagilar bilan o‘zaro munosabat o‘rnatishi va o‘zini jamiyat talablariga moslashtirish jarayoni. Bu jarayon shaxsning ijtimoiy muhitga qo‘silishi, jamiyat normalari, qadriyatlari va qoidalarini qabul qilishi hamda ularga mos ravishda o‘z faoliyatini tashkil etishi bilan bog‘liq.

Ijtimoiy moslashuv — bu shaxs va jamiyat o‘rtasidagi muvozanatni saqlash, yangi sharoitlarga moslashish va ularning talablariga javob berish qobiliyatidir. Yoshlar uchun bu jarayon murakkab bo‘lib, oiladan, mактабдан, tengdoshlar guruhidan va keng jamiyatdan keluvchi ta’sirlarni qamrab oladi. Moslashuv jarayonida yoshlar o‘zlarining shaxsiy fazilatlari, qiziqishlari va maqsadlariga mos ravishda ijtimoiy vazifalarni bajarishni o‘rganadi.

## Ijtimoiy moslashuvning asosiy omillari:

1. Shaxsiy xususiyatlar: Odamning xarakteri, hissiyati va qobiliyati ijtimoiy moslashuvga ta'sir qiladi.
2. Atrof-muhit: Oila, do'stlar, ish joyi va jamiyatning boshqa elementlari insonning moslashuv jarayonida muhim rol o'ynaydi.
3. Tarbiyaning ta'siri: Ota-onas tarbiyasi, mактабдаги та'лимтарбиya ijtimoiy moslashuv uchun muhim asos hisoblanadi.
4. Jamiyatning qadriyatlari: Shaxs jamiyatning ijtimoiy normalariga moslashishi lozim, masalan, madaniyat, qonunlar va axloq qoidalari.

### Ijtimoiy moslashuv bosqichlari

1. Tan olish: Shaxs yangi muhit yoki jamiyat talablarini tushunadi.
2. Qabul qilish: Yangi sharoitlar va qoidalari ongli ravishda qabul qilinadi.
3. Amal qilish: Shaxs o'z faoliyatini yangi talablar assosida tashkil qiladi.
4. Integratsiya: Shaxs jamiyat bilan bir butun bo'lib yashay boshlaydi.

### Ijtimoiy moslashuvning turlari

Faol moslashuv: Inson ijtimoiy muhitga faol ravishda moslashib, jamiyatda o'z o'rmini topadi.

Passiv moslashuv: Shaxs jamiyatga passiv ravishda moslashib, tashabbus ko'rsatmasdan yashaydi.

Innovatsion moslashuv: Yangi ijtimoiy normalar va qadriyatlarni shakllantirishga yordam beradi.

Yoshlarning ijtimoiy moslashuvi – bu o'sib kelayotgan avlodning jamiyatga qo'shib, unda faol o'rin egallashi, jamiyatning qadriyatlari, qoidalari va talablariga moslashishi jarayonidir. Bu jarayon yoshlik davrida intensiv ravishda kechadi, chunki aynan shu davrda shaxsning dunyoqarashi, ijtimoiy roli va kelajakdagi pozitsiyasi shakllanadi.

## Yoshlarning ijtimoiy moslashuvini belgilovchi omillar:

1. **Oila:** Oila birlamchi ijtimoiy institut bo'lib, unda bola jamiyat normalari va qadriyatlari bilan tanishadi. Sog'lom oilaviy muhit yoshning ijtimoiy moslashuvini osonlashtiradi.

**2. Ta’lim va tarbiya:** Maktab, universitet va boshqa ta’lim muassasalari yoshlarni jamiyatga integratsiya qilishda muhim rol o‘ynaydi. Ta’lim jarayonida yoshlarni jamiyatning ijtimoiy qoidalarini o‘rganadilar va o‘zlari uchun kasbiy yo‘nalish tanlaydilar.

**3. Do‘srlar va tengdoshlar:** Yoshlik davrida tengdoshlarning fikri katta ahamiyatga ega. Do‘srlar guruhlari yoshlarning ijtimoiy qobiliyatlari va o‘zini tutab ilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

**4. Axborot muhitining ta’siri:** Internet, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalari yoshlarning dunyoqarashi va ijtimoiy xulq-atvoriga katta ta’sir ko‘rsatadi.

**5. Jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy sharoit:** Yoshlarning moslashuvi ularning ta’lim olish imkoniyatlari, ish topish sharoitlari va jamiyatning umumiy ijtimoiy-iqtisodiy darajasiga bog‘liq.

### **Yoshlarning ijtimoiy moslashuvining xususiyatlari**

**1. Identifikatsiya (o‘zini anglash):** Yoshlar o‘zlariga jamiyatdagi rol va o‘rinni aniqlashga harakat qiladilar. Shu jarayonda o‘zlikni anglash muhim ahamiyat kasb etadi.

**2. Mustaqillik uchun intilish:** Yoshlik davrida o‘ziga xos mustaqillik va erkinlikka intilish kuchayadi. Bu ularga o‘z qarorlarini qabul qilish va mas’uliyatni anglash imkonini beradi.

**3. Eksperiment qilish:** Yoshlar yangi fikrlar, qadriyatlar va xulq-atvorni sinab ko‘rishga moyil bo‘ladilar. Bu ularga jamiyatda o‘z joyini topish imkonini beradi.

Yoshlarning ijtimoiy moslashuvi – bu murakkab va doimiy jarayon bo‘lib, uning muvaffaqiyati nafaqat yoshlarning o‘ziga, balki oila, ta’lim muassasalari va jamiyatning yordami va qo‘llab-quvvatlashiga ham bog‘liqdir. Bu jarayonni to‘g‘ri boshqarish yoshlarning kelajakda jamiyatning faol va muvaffaqiyatli a’zolariga aylanishiga zamin yaratdi.

Yoshlarning ijtimoiy moslashuvi va ma’naviy tarbiya jamiyatning kelajagi va barqarorligi uchun muhim masalalardandir. Yoshlar har qanday jamiyatning kelajagi bo‘lib, ularning to‘g‘ri shakllanishi va ijtimoiy hayotga muvaffaqiyatli qo‘silishi

jamiyat taraqqiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ma'naviy tarbiya esa yoshlarning ijtimoiy moslashuv jarayonini yengillashtiradigan va ularni jamiyatning ma'naviy qadriyatlari asosida shakllantiradigan asosiy omillardan biridir.

**Ma'naviy tarbiya – ijtimoiy moslashuvning negizi**

Ma'naviy tarbiya – bu yoshlarning axloqiy va ma'naviy qadriyatlarni o'zlashtirishi, ularda to'g'ri dunyoqarash, vatanparvarlik, hurmat, halollik va mas'uliyat kabi fazilatlarni shakllantirish jarayonidir. Ma'naviy tarbiya yoshlarni nafaqat ichki jihatdan boy qiladi, balki ularning jamiyatga moslashuvini ham yengillashtiradi.

**Ma'naviy tarbiyadagi asosiy maqsadlar:**

- Axloqiy qadriyatlarni shakllantirish: Halollik, adolat, mas'uliyat va mehribonlik kabi fazilatlarni o'rgatish.
- Madaniy merosni qadrlash: Yoshlarni milliy qadriyatlar, tarix va madaniyat bilan tanishtirish.
- Jamiyatga foyda keltirish: Yoshlarni ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishga undash.
- Axborot tanlash madaniyati: Yoshlarni internet va media vositalaridan to'g'ri foydalanishga o'rgatish.

Ijtimoiy moslashuv va ma'naviy tarbiya bir-birini to'ldiruvchi jarayonlardir. Ma'naviy jihatdan boy shaxs jamiyat talablariga tez moslashadi va o'zining jamiyatdagi rolini anglaydi. Ma'naviy tarbiya yoshlarga nafaqat o'z qadrini bilishni, balki boshqalarga hurmat ko'rsatishni ham o'rgatadi. Bu esa ularning ijtimoiy munosabatlarini yaxshilaydi va muvaffaqiyatli integratsiyaga yordam beradi.

**Xulosa.** Yoshlarning ijtimoiy moslashuvi va ma'naviy tarbiyasi jamiyatning poydevorini mustahkamlash uchun muhim jarayonlardir. Ma'naviy jihatdan boy, ijtimoiy moslashuvchan yoshlari jamiyatning rivojlanishida yetakchi rol o'ynaydi. Shuning uchun oila, ta'lim muassasalari va jamiyat birgalikda yoshlarni to'g'ri tarbiyalashga va ularga qo'llab-quvvatlash ko'rsatishga intilishi lozim.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Mirziyoyev Sh.M Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz.-T..”O‘zbekiston”-2017y.
2. ”Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. 2016 yil 4-sentabr // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujatlari ma’lumotlari milliy bazasi- Lex.Uz//lex.uz//
3. Bobomurodov M. Duronov M. Bunyodkor kuch. “Tafakkur” jurnali.-2003.